

KO‘P AVLODLI OILALARDA EMPATIYA VA O‘ZARO TUSHUNISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-558-561>

Ilminur Shukurova,

Andijon davlat pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: psychologist.ilminur@gmail.com

Tel: (77) 3171445

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘p avlodli oilalarda empatiya darajasi va o‘zaro tushunishning psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Empatiya shaxslararo munosabatlarning muhim mexanizmi sifatida oilaviy muloqot, hissiy yaqinlik va avlodlararo uyg‘unlik bilan bog‘liq holda yoritilgan. Klassik psixologik nazariyalar asosida empatiya va o‘zaro tushunishning ko‘p avlodli oilalardagi ahamiyati ochib berilgan. Maqola xulosalari oilaviy munosabatlarni uyg‘unlashtirish va avlodlararo aloqalarni mustahkamlashda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Ko‘p avlodli oila, o‘zaro tushunish, oilalarda empatiya, o‘zini tushuna olish, boshqalarni tushuna olish, moslashuvchanlik, empatiya yetishmovchiligi va oiladagi tushunmovchiliklar.

Аннотация. В статье теоретически анализируются психологические особенности уровня эмпатии и взаимопонимания в многопоколенных семьях. Эмпатия рассматривается как важный механизм межличностных отношений во взаимосвязи с семейным общением, эмоциональной близостью и межпоколенческой гармонией. На основе классических психологических теорий раскрывается значение эмпатии и взаимопонимания в многопоколенных семьях. Выводы статьи имеют научно-практическую значимость для гармонизации семейных отношений и укрепления межпоколенческих связей.

Ключевые слова: многопоколенная семья, взаимопонимание, эмпатия в семье, самопонимание, понимание других, адаптивность, дефицит эмпатии и семейные конфликты.

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the psychological characteristics of empathy levels and mutual understanding in multigenerational families. Empathy is examined as an important mechanism of interpersonal relationships in connection with family communication, emotional closeness, and intergenerational harmony. Based on classical psychological theories, the significance of empathy and mutual understanding in multigenerational families is revealed. The conclusions of the article have scientific and practical significance for harmonizing family relationships and strengthening intergenerational ties.

Keywords: multigenerational family, mutual understanding, empathy in families, self-understanding, understanding others, adaptability, lack of empathy and family misunderstandings.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda oilaning ijtimoiy institut sifatidagi roli tobora murakkablashib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, urbanizatsiya, migratsiya jarayonlari hamda qadriyatlar transformatsiyasi fonida oilaviy munosabatlar tizimi yangi psixologik mazmun kasb etmoqda. Ayniqsa, bir necha

avlod vakillari birgalikda yashaydigan ko‘p avlodli oilalarda shaxslararo munosabatlarning sifat jihatdan o‘zgarishi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday oilalarda avlodlar o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro tushunish va hissiy yaqinlik darajasi oilaning psixologik barqarorligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda bir qator xuquqiy-me‘yoriy hujjatlarda oilaviy munosabatlarning sog‘lomligi, jamiyatimizda oilalardagi an‘anaviy qadriyatlarning uzluksizligi, er-xotin ularning yaqin qarindoshlari o‘rtasidagi munosabatlarning oilalar mustahkamligiga ta‘siri borasidagi turli masalalar keltirilgan. Xususan, 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-son “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 21-dekabrda PQ-402-son “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 27-dekabrda KQ-29-V-son “Oila instituti huquqiy asoslarini takomillashtirish va oilaviy qadriyatlarni saqlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1] kabi qonun xujjatlari bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Osiyoning bir qator davlatlari kabi aynan O‘zbekiston davlatida ham oilalar shakli ko‘p avlod bo‘lib istiqomat qilishi qadim davrlardan an‘ana tusiga aylanib qolgan. Bunday oilalardagi shaxslararo munosabatlarda o‘zaro tushunish hissi esa jamiyatimizdagi oilalarning ichki mustahkamligini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Ko‘p avlodli oilalarda empatiya — ya‘ni boshqa shaxsning hissiy holatini anglash, uni his etish va unga mos munosabat bildirish qobiliyati — shaxslararo munosabatlarning markaziy psixologik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Empatiya darajasi yuqori bo‘lgan oilalarda avlodlararo ziddiyatlar kamroq kuzatiladi, muloqot ochiq va konstruktiv tus oladi, o‘zaro ishonch hamda hissiy xavfsizlik muhiti shakllanadi. Aksincha, empatiya yetishmovchiligi oilada tushunmovchiliklar, hissiy sovuqlik va psixologik masofaning ortishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar tahlil qilinganda A.Adler, K.G.Yung, J.Piaje E.Erikson va S.Minuchin kabi bir qator olimlar tomonidan keltirilgan nazariyalar aynan oilaviy munosabatlardagi shaxslararo o‘zaro tushunish va empatiya darajasining psixologik mexanizmlarini turli jihatlarida yoritib berishini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, Adlerga ko‘ra oiladagi o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar shaxsda empatiyaning rivojlanishiga zamin yaratadi, aksincha, tushunmovchilik va hissiy sovuqlik ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi [2]. Yung esa oilaviy munosabatlarda shaxslar bir-birini anglashida ularning ichki psixologik tuzilmalari va hissiy sezgirligi muhim rol o‘ynashini ta‘kidlaydi, bu esa empatiyaning chuqur psixologik asoslarini ochib beradi [3]. Piajening fikricha, oilaviy muhitda turli avlod vakillari o‘rtasidagi empatik munosabatlar shaxsning boshqalarning nuqtai nazarini qabul qila olish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi [4]. E.Eriksonning nazariyasiga ko‘ra shaxsning ijtimoiy munosabatlarda

ishonch, yaqinlik va identifikatsiya bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tishi bilan chambarchas bog'liq [5], shuningdek, Minuchinga ko'ra, oiladagi aniq chegaralar, moslashuvchan rollar va samarali muloqot empatik aloqalarning shakllanishiga hamda avlodlararo munosabatlarda uyg'unlikni saqlashga xizmat qiladi [6].

Ko'p avlodli oilalarda shaxslararo munosabatlarning sifatini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri empatiya va o'zaro tushunish darajasidir. Avlodlar o'rtasidagi empatik sezgirlik oilaviy muloqotning ochiqligi, hissiy yaqinlikning shakllanishi hamda psixologik barqarorlikning ta'minlanishida yetakchi rol o'ynaydi. Empatiya rivojlangan oilaviy muhitda turli avlod vakillari bir-birining hissiy holatini anglay oladi, bu esa tushunmovchilik va ziddiyatlarning kamayishiga xizmat qiladi.

Shu bois ko'p avlodli oilalarda empatiya va o'zaro tushunishning psixologik jihatdan o'rganilishi oilaviy munosabatlarning uyg'unligini ta'minlash, avlodlararo aloqalarni mustahkamlash hamda zamonaviy ijtimoiy sharoitda oilaning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'p avlodli oilalarda empatiya darajasi va o'zaro tushunish shaxslararo munosabatlarning psixologik sifatini belgilovchi asosiy omillar qatoriga kiradi. Turli avlod vakillarining bir makonda yashashi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni, balki murakkab hissiy va kommunikativ aloqalarni ham shakllantiradi. Bunday sharoitda empatiya oilaviy muloqotning muvozanatini ta'minlovchi ichki psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Empatiya darajasi yuqori bo'lgan ko'p avlodli oilalarda avlodlar o'rtasida o'zaro tushunish barqarorroq shakllanadi. Bu holat oilada ishonch muhitining vujudga kelishiga, hissiy yaqinlikning kuchayishiga hamda shaxsiy farqlarni qabul qilish madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday oilalarda muloqot jarayoni ko'proq ochiq, moslashuvchan va konstruktiv xarakter kasb etadi.

Aksincha, empatiya yetarli darajada rivojlanmagan oilaviy muhitda shaxslararo munosabatlar yuzaki yoki ziddiyatli tus olishi mumkin. Bu esa avlodlar o'rtasida psixologik masofa ortishiga, tushunmovchiliklarning chuqurlashishiga va oilaviy iqlimning beqarorlashuviga olib keladi. Ayniqsa, qadriyatlar, dunyoqarash va hayotiy tajribalar farqi keskin bo'lgan holatlarda empatik sezgirlikning pastligi o'zaro tushunishni murakkablashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ko'p avlodli oilalarda empatiya darajasi va o'zaro tushunishning psixologik jihatdan o'rganilishi oilaviy munosabatlarni uyg'unlashtirish, avlodlararo aloqalarni mustahkamlash hamda jamiyatda sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu masalaning chuqurroq o'rganilishi kelgusida oilaviy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va oilaviy amaliy maslahat masalalarini takomillashtirish uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. <https://lex.uz>
2. Adler, A. (1956). *The individual psychology of Alfred Adler*. New York, NY: Harper and Row.
3. Jung, C. G. (1971). *Psychological types* (Collected Works of C. G. Jung, Vol. 6). Princeton, NJ: Princeton University Press.
4. Piaget, J. (1932). *The moral judgment of the child*. London, UK: Routledge and Kegan Paul.
5. Erikson, E. H. (1950). *Childhood and society*. New York, NY: W. W. Norton & Company.
6. Minuchin, S. (1974). *Families and family therapy*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. I.B.Shukurova (2025) “Ko‘p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik jihatlari: zamonaviy xorijiy tadqiqotlar tahlili” O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1] ISSN 2181-7324. 234-236-b.